



FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA

[Jild: 4 Nashr: 12 (2025)] ISSN: 2992-8915

www.mudarrisziyo.uz

ZAMONAVIY TARJIMA TEXNOLOGIYALARINING BADIY TARJIMAGA TA'SIRI

*Akramxodjayeva Dilfuza Abduganiyevna*¹

¹ Katta o'qituvchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy tarjima texnologiyalarining badiiy tarjima amaliyotiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Mashina tarjima tizimlari, kompyuter yordamida tarjima (CAT) vositalari va sun'iy intellektga asoslangan lingvistik yechimlarning jadal rivojlanishi natijasida badiiy tarjimonning roli va kasbiy mas'uliyati sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Tadqiqotda raqamli vositalarning afzalliklari – tarjima tezligini oshirish, terminologik izchillikni ta'minlash hamda ko'p tilli resurslardan keng foydalanish imkoniyati – bilan bir qatorda, ularning salbiy jihatlari ham ko'rsatib beriladi. Xususan, badiiy matnlarda uslubiy o'ziga xoslikning yo'qolishi, madaniy nozikliklarning yetarli aks ettirilmasligi, muallif ovozi va estetik qiymatning buzilishi kabi muammolar yoritiladi. Tadqiqotda inson ijodkorligi va avtomatlashtirilgan jarayonlar o'rtasidagi muvozanat masalasi alohida ko'rib chiqilib, badiiy tarjima chuqur madaniy kompetensiya, talqin qobiliyati va badiiy mahorat talab etishi ta'kidlanadi. Xulosa sifatida, zamonaviy tarjima texnologiyalari badiiy tarjimonni almashtiruvchi emas, balki uning samaradorligini oshiruvchi va tarjimaning badiiy tabiatini saqlab qoluvchi yordamchi vosita sifatida qaralishi lozimligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, CAT vositalari, tarjimada sun'iy intellekt, stilistik ekvivalentlik, madaniy moslashtirish, inson va texnologiya hamkorligi.

Kirish qismi: Globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari jadal kechayotgan XXI asrda tarjima sohasi eng tez rivojlanayotgan sohalardan biriga aylandi. Ayniqsa, mashina tarjimasi (MT), neyron tarmoqlarga asoslangan tarjima tizimlari va kompyuter yordamida tarjima qilish vositalari (CAT) kabi texnologik innovatsiyalar tarjima jarayoniga tubdan yangicha yondashuvlarni olib kirdi. Bu vositalar texnik, iqtisodiy, huquqiy va ilmiy matnlar tarjimasida samaradorlikni ancha oshirib, tarjimon faoliyatini yengillashtirmoqda. Shu bilan birga, badiiy tarjima – lingvistik hamda estetik murakkablikni

o'zida mujassam etgan ijodiy jarayon bo'lgani sababli – texnologiyalarning unga ko'rsatadigan ta'siri ancha murakkab va bahsli masala sifatida qolmoqda.

Badiiy asarlar tarjimasida til kommunikativ vosita bo'lish bilan birga, muallifning dunyoqarashi, madaniy kodlar, obrazlar tizimi, estetik baho va poetik nafosatni ham ifodalaydi. Shu bois mashina tarjima yoki avtomatlashtirilgan tizimlar badiiy matndagi ohangdorlik, ramziy ma'no, intertekstual aloqalar, metaforalar, milliy-madaniy unsurlarni yetarli darajada anglash va qayta yaratishda ko'pincha qiynaladi. Natijada badiiy tarjimada uslubiy xususiyatlarning yo'qolishi, ma'no torayishi yoki madaniy identitetning buzilishi ehtimoli kuchayadi.

Biroq bu texnologiyalarni inkor etish ham to'g'ri yondashuv bo'la olmaydi. Chunki CAT vositalari tarjimonning produktivligini oshiradi, terminologik birlikni ta'minlaydi, muqobil variantlar bazasini tez taqdim etadi. Shuningdek, sun'iy intellektga asoslangan dasturlar tarjimon uchun dastlabki tarjima loyihasini yaratishda qulay yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa tarjimonga ijodiy va stilistik ishlov berishga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi.

Shunday qilib, bugungi kunda badiiy tarjima jarayonini inson ijodkorligi va raqamli texnologiyalar uyg'unligi sifatida tasavvur qilish muhimdir. Tarjimon faqat matnni bir tildan ikkinchi tilga ko'chiruvchi vositachi emas, balki badiiy ma'no va estetik ruhni tiklovchi ijodkor sifatida qoladi. Zamonaviy texnologiyalar esa ushbu ijodkorlikni kuchaytiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi, ammo hech qachon uni to'liq almashtira olmaydigan vosita sifatida qaralishi lozim.

Mazkur tadqiqot zamonaviy tarjima texnologiyalarining badiiy tarjimaga ta'sirini nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga qaratilgandir. Maqolada texnologiyalar yordamida amalga oshirilayotgan tarjimalarning afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinib, badiiy tarjima sifatini saqlash uchun tatbiq etilishi lozim bo'lgan metodik yondashuvlar yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili: Zamonaviy tarjima texnologiyalarining badiiy tarjimaga ta'siri haqida olib borilgan ilmiy izlanishlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu mavzu bo'yicha ilmiy qarashlar ikki asosiy yo'nalishga bo'linadi: texnologiyalarni qo'llab-quvvatlovchi va ularni tanqidiy baholovchi yondashuvlar.

Texnologiyalarni ijobiy baholovchi olimlar – qo'llash jarayonining samaradorligi va tarjima tezligini oshirishga urg'u beradilar. Masalan, Gambier va Pym kabi tadqiqotchilar CAT tizimlari tarjimonning mehnatini yengillashtirib, terminologik izchillik va matn birligini ta'minlashda katta yordam berishini ta'kidlashadi. Shuningdek, Austermühl internet resurslari va raqamli korpuslarning kengayishi tarjimaning ilmiy asoslanganligini kuchaytirishini qayd etadi. Bu yondashuvga ko'ra, texnologiyalar tarjimon uchun kuchli yordamchi vosita bo'lib, ijodiy bosqichga ko'proq vaqt ajratish imkonini yaratadi.

Biroq tanqidiy yondashuv tarafdorlari – Venuti, Bassnett va Eco kabi olimlar – zamonaviy tarjima texnologiyalarining badiiy tarjimaga to'liq mos kelmasligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, mashina tarjimasida badiiy matnga xos stilistik qatlam, muallif individualligi, madaniy konnotatsiya ko'pincha yetarlicha aks etmaydi. Natijada badiiy-estetik qiymat pasayishi, obrazlar tizimi buzilishi yoki madaniy mazmun yo'qolishi kuzatilishi mumkin. Ular tarjimini san'at sifatida ko'rgan holda, mashina tarjimasining ijodiy tafakkur o'rnini egallay olmasligini alohida ta'kidlaydilar.

Neyron tarjima texnologiyalariga oid so'nggi tadqiqotlar esa ushbu jarayonga yanada moderatsiyalashgan yondashuvni taklif etadi. Koehn, Huang va boshqa olimlar neyron tarjima an'anaviy mashina tarjimasidan ancha yuqori sifatga ega bo'lsa-da, badiiy matndagi semantik nozikliklar va estetik mazmunni to'liq qayta yaratishda hanz inson tahriri zarurligini qayd etadilar. Bu

tadqiqotlar texnologiyalar rivojlanayotganini tan olgan holda, ularni to'liq alternativ emas, balki inson ijodkorligini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida talqin qiladi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, badiiy tarjima sohasida insonning rolini hech bir texnologiya to'liq almashtira olmaydi. Eng maqbul yechim – texnologiya va ijodiy tafakkur sinergiyasiga asoslangan yondashuv bo'lib, unda texnologiyalar yordamchi, tarjimon esa badiiy yaratuvchi sifatida markaziy o'rinni egallaydi. Shu sababli, tarjimonlik ta'limida ham lingvistik bilimlar qatori, texnologik savodxonlik va estetika ko'nikmalari uyg'un rivojlantirilishi lozim.

Asosiy qism: Zamonaviy tarjima texnologiyalarining badiiy tarjima jarayoniga ta'siri murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, u tarjimon faoliyatini bir vaqtning o'zida ham yengillashtiradi, ham ma'lum cheklolarga duchor etadi. Mashina tarjimasi (Google Translate, DeepL va boshqalar), neyron tarjima tizimlari, kompyuter yordamida tarjima vositalari (SDL Trados, MemoQ, SmartCAT) hamda sun'iy intellektga asoslangan lingvistik dasturlar tarjimonning amaliy faoliyatida keng qo'llanmoqda. Ushbu vositalar, avvalo, tarjima jarayonining tez va samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Tarjimon lug'at izlashga, takrorlanadigan iboralarni qayta tarjima qilishga ortiqcha vaqt sarflamaydi, natijada badiiy matnga stilistik va ijodiy ishlov berishga ko'proq e'tibor qaratish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli vositalar tarjimada terminologik izchillikni ta'minlaydi, bir matndagi uslub birligi saqlanishiga yordam beradi, tarjimonlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi. Internet lug'atlari, elektron korpuslar, onlayn ma'lumot bazalari intertekstual ishoralar, timsollar va milliy realialarni izohlashda qo'shimcha manba sifatida katta xizmat qiladi. Shunday qilib, texnologiyalar tarjimonning intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlab, tarjima samaradorligini oshiradi.

Biroq badiiy tarjima faqat texnik jarayon emas. Unda muallifning badiiy uslubi, estetik qarashlari, obrazlar tizimi va madaniy mazmun markaziy ahamiyatga ega bo'ladi. Sun'iy intellekt esa hanuzgacha metafora, ironiyaga boy o'xshatishlar, madaniy konnotatsiyalar, kontekstual ma'no yoki poetik ritmni chuqur anglab yetolmaydi. Natijada avtomatlashtirilgan tarjimalarda badiiy ruhning susayishi, muallif ovozinig yo'qolishi yoki noto'g'ri moslashtirish oqibatida milliy-madaniy mazmunning buzilishi kuzatilishi mumkin.

Bundan tashqari, texnologiyalarga haddan tashqari tayanuvchanlik tarjimonning ijodiy tafakkurini cheklashi, tahliliy fikrlash va til ustida ishlash ko'nikmalarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Texnik vositalar ishlab chiqargan variantlar ustidan chuqur tahrir o'tkazilmasa, kalkalash va grammatika xatolari kuchayishi ehtimoli mavjud. Bu esa tarjima sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuoqirdagi omillarni hisobga olib aytish mumkinki, badiiy tarjima jarayoni inson tafakkuri va texnologik imkoniyatlar uyg'unligiga asoslanishi lozim. Texnologiyalar tarjimonga yordamchi bo'lgani holda, tarjimon badiiy-estetik qarorlarning yagona manbai bo'lib qoladi. Tarjimonning vazifasi – muallif uslubini saqlagan holda, madaniy mazmunni to'liq yetkazish, obrazlar tizimining ta'sirchanligini yo'qotmaslikdan iborat. Aynan shundagina texnologiyalar bilan boyatilgan yangi tarjima modeli – ya'ni "ijodiy-texnologik hamkorlik" samarali ishlaydi.

Shu asosda aytish mumkinki, zamonaviy tarjima texnologiyalari badiiy tarjimani inkor qilmaydi, aksincha, tarjimon mehnatini qo'llab-quvvatlaydi hamda uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Eng to'g'ri yondashuv – texnologiyalardan oqilona foydalanish orqali inson ijodkorligini kuchaytirish, badiiy matnning asl ruhini saqlab qolishdir.

Tahlillar: Zamonaviy tarjima texnologiyalarining badiiy tarjimaga ta'siri ushbu sohaning nazariy va amaliy rivojida muhim o'rin tutmoqda. Badiiy tarjima inson tafakkuri, estetik did va madaniy tajribaga asoslangan ijodiy jarayondir. Texnologiyalar esa asosan lingvistik kodlarni qayta ishlashga yo'naltirilgan bo'lib, matnning chuqur ma'no qatlamlari bilan ishlash imkoniyatiga to'la ega emas.

Mashina tarjimasining imkoniyatlari, bir tomondan, tarjima jarayonida xizmat ko'rsatib, tezlik va samaradorlikni oshirsa, boshqa tomondan, badiiy matnda mavjud bo'lgan ramzlar, timsollar, metaforalar, kinoyalar, madaniy nozikliklarni yetarlicha talqin qila olmaydi. Natijada badiiy-estetik qiymatga ega unsurlar yo'qolib ketishi yoki yuzaki talqin bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan tarjimalar tilning standart shakliga ko'proq tayanadi, bu esa turli mualliflarning uslubiy individualligini bir qolipga solib qo'yadi. Shuning uchun mashina tarjimasini yarim tayyor vosita sifatida qaralib, inson tomonidan badiiy-estetik ishlov berish talab etiladi. Aks holda tarjima matnida kalkalash, grammatik nomuvofiqlik, semantik noaniqlik kabi kamchiliklar kuzatiladi. Bu holatlar tarjimaning asosiy maqsadi bo'lgan badiiy ta'sirchanlikning buzilishiga olib keladi.

Zamonaviy texnologiyalarga haddan tashqari tayanish tarjimonning mustaqil fikrlashi, ijodiy izlanishi va interpretatsiya qilish ko'nikmalarini susaytirishi mumkin. Tarjimon sun'iy intellekt tomonidan taklif etilgan variantga ishonib, badiiy ma'nolarni chuqur tahlil qilishdan chetga chiqib qolishi xavfi mavjud. Shu sababli, bugungi kunda tarjimonlik kompetensiyasi tarkibiga nafaqat lingvistik bilimlar, balki texnologik savodxonlik bilan birga kuchli badiiy tahlil, ijodiy tafakkur va madaniy interpretatsiya qobiliyati ham kiradi.

Raqamli vositalar tarjimon ishini yengillashtirishi bilan birga, tarjima sifatini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi. Ammo bu vositalar tarjimonning o'rnini bosa olmaydi, chunki badiiy tarjima san'at bo'lib qolaveradi. Tarjimonning vazifasi – texnologiyalardan foydalanib, matnning badiiy-estetik ruhini, muallif ovozini va madaniy mazmunini yo'qotmagan holda yangi tilda qayta yaratishdir. Demak, inson va texnologiyaning uyg'un ishlashi tarjimonlik jarayonining eng maqbul shakli sifatida qaraladi.

Xulosa qismi: Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy tarjima texnologiyalari – mashina tarjimasini, neyron tarjima tizimlari va kompyuter yordamida tarjima vositalari – badiiy tarjima jarayonini tubdan o'zgartirib, tarjimon faoliyatining samaradorligini oshirmoqda. Texnologiyalar tarjima jarayonida vaqtni tejaydi, lug'at va resurslarga tezkor murojaat qilish imkonini yaratadi, matnda terminologik izchillikni ta'minlaydi hamda jamoaviy ishlash imkoniyatini kengaytiradi. Shu jihatdan, raqamli vositalar tarjimonning kasbiy salohiyatini qo'llab-quvvatlovchi muhim omilga aylanmoqda.

Biroq badiiy tarjima – san'atkorona talqin va ijodiy qayta yaratishga asoslangan murakkab jarayon bo'lib, unda matnning ma'no qatlamlari, madaniy konnotatsiyalar, muallif uslubi va obrazlar tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalar ushbu estetik va madaniy elementlarni to'liq anglab, badiiy mukammallik darajasida takrorlay olmaydi. Shuning uchun ham badiiy tarjimada inson tafakkuri, interpretativ fikrlashi va ijodkorlik salohiyati yetakchi o'rin tutishda davom etadi.

Demak, texnologiyalarni badiiy tarjimaning muqobili yoki o'rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki tarjimon bilan hamkorlikda ishlaydigan qo'shimcha imkoniyat manbai sifatida ko'rish lozim. Eng maqbul yondashuv – inson va texnologiya sinergiyasiga asoslangan, ya'ni texnologiya tarjimonning ishini yengillashtirib, ijodiy bosqichda chuqur stilistik va madaniy tahlilni aynan tarjimonning o'zi amalga oshiradigan modeldir.

Kelajak tarjimashunosligi uchun eng asosiy vazifa – tarjimonlarning texnologik savodxonligini oshirish, shu bilan birga ularning madaniy-estetik kompetensiyasini mustahkamlashdan iborat. Tarjimonlar raqamli vositalardan samarali foydalanib, badiiy tarjimaning asl vazifasi – asar ruhini, poetik ohangini va milliy o'zlikni yangi tilda qayta yaratish –ga sodiq qolgan holda ishlashlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tarjima texnologiyalari badiiy tarjimaning ajralmas qismi bo'lib borayotgan bo'lsa-da, badiiy tarjimaning yuragi baribir insonning ijodiy tafakkuri va estetik sezgirligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bassnett S. Translation Studies. – London: Routledge, 2014. – 201 p.
2. Eco U. Dire quasi la stessa cosa: Esperienze di traduzione. – Milano: Bompiani, 2003. – 464 p.
3. Gambier Y., Doorslaer L. van. Handbook of Translation Studies. – Amsterdam: John Benjamins, 2016. – 412 p.
4. Koehn P. Neural Machine Translation. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 346 p.
5. Pym A. Translation Solutions for Many Languages: Histories of a Flawed Dream. – London: Bloomsbury Academic, 2019. – 256 p.
6. Kasimova, Sarvinoz. "TRANSLATION OF EXAMPLES OF EASTERN LITERATURE INTO UZBEKISTAN: ISSUES OF STYLE, CONTENT AND AESTHETIC CONSISTENCY." *International Journal of Artificial Intelligence* 1.3 (2025): 116-119.
7. Dilfuza Abduganiyevna Akramxodjayeva. (2024). ASARLAR TARJIMALARIDA HARAKATNING KONSEPTUAL TURLARI. *PEDAGOGS*, 53(1), 138–143. Retrieved from <https://pedagogs.uz/ped/article/view/913>
8. Begmatova, Buzahro. "TRANSLATION IN AN AUDIOVISUAL CONTEXT: CULTURAL WORDS AND THEIR ADAPTATION." *International Journal of Artificial Intelligence* 1.3 (2025): 125-128.
9. Hamidov, X. "TRANSLATION OF PROVERBS IN THE WORKS OF ABDULLA QAHHOR." *Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies* 2.04 (2024): 74-82.
10. Razikova, N. A., & Raxmonkulovna, A. M. (2025). AGATA KRISTINING INDIVIDUAL USLUBI VA TARJIMA MUAMMOSI ("10 TA NEGR BOLASI" ROMANI MISOLIDA). *SHOKH LIBRARY*.
11. Dilfuza Abduganiyevna Akramkhodjayeva. Conceptual Types of Movement in the Translations of Works. (2024). *Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation* (2993-2777), 2(3), 79-82. <https://grnjournal.us/index.php/AJLISI/article/view/3839>
12. Akramkhodjayeva, D.. (2025). POSSIBILITIES OF PERSONALIZING LANGUAGE LEARNING WITH THE HELP OF CHATGPT AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 129–131. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/80041>
13. Saodat Parkhadjanovna Saidakbarova, Nargiza Komiljonovna Mukhamedova, Iroda Makhmudjanovna Jalolova, Zulfiya Olimjonovna Mirabdullayeva, & Dilfuza Abduganiyevna Akramkhodjayeva. (2024). The Role Of Speech Genres In The Communication Process. *Educational Administration: Theory and Practice*, 30(5), 2500–2503. <https://doi.org/10.53555/kuey.v30i5.3304>
14. Khamidov, X. K., Bultakov, I. Y., Raxmanberdiyeva, K. S., Kasimova, S. S., & Sodiqova, S. B. (2024). Linguistic Expertise of Educational Literature: Analysis and Results. *Journal Power System Technology*, 48(4), 4017-4027.